O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI SHO‘RCHI TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 72-uy. 191500 tel.: (+99876) 457-41-00, shurchi_t@exat.uz

2023 - yil 30 - mart 60-8-120-Q/23 Sho‘rchi tuman hokimligi

Sho‘rchi tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 27-sentyabrdagi PF–6075-son Farmoni hamda Sho‘rchi tuman adliya bo‘limining 2023 yil 16 martdagi 38/1-1/70-son taqdimnomasi ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24 va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentyabrdagi PF–6075-son Farmonida 2021-yil 1-iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Sho‘rchi tuman adliya bo‘limining 2023 yil 16 martdagi 38/1-1/70-son taqdimnomasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin hamda Sho‘rchi tuman hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Matbuot xizmati N.Shoyeva mazkur qarorning rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish hokimining o‘rinbosari A.Chulibayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **U.Zokirov**

Sho‘rchi tuman hokimining
2023 yil 30 martdagi
60-8-120-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Sho‘rchi tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Sho‘chri tuman hokimining «Sho‘rchi tumanidagi qishloq xo‘jaligi va meliorativ texnikalarni, shuningdek mashina-traktor parklari, ustaxonalar va servis punktlarining asbob-uskunalarini 2018 yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida» 2018 yil 5 fevraldagi Q-351-son qarori.

2. Sho‘rchi tuman hokimining «Tuman hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini 2020 yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida»gi 2020 yil 18 fevraldagi Q-443-son qarori.